

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

12-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Hadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDAGI INNOVATSION ISLOHOTLARNING NATIJALARI.....	13-16
<i>Равшанов Махмуд</i> ЗАСЛУГИ АЛИШЕРА НАВОИ В ИЗУЧЕНИИ РАЗВИТИЙ ТЮРКСКИХ ЯЗЫКОВ	17-19
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> FARG'ONA VODIYSIDA HASHAR YO'LI BILAN QURILGAN GIDROINSHOOTLAR TARIXIDAN	20-24
<i>Jumaboyev Azizjon Sayfiddin o'g'li, Shenkar Michael</i> SHARQ MAMLAKATLARIDA MIRZO ULUG'BEK ILMIY MEROSINING O'RGANILISHI	25-30
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON–ROSSIYA ENERGETIK ALOQALARI TARIXI:LUKOYL MISOLIDA	31-36
<i>Asadova Ra'no Baymanovna</i> OLIY TA'LIM VA ILMIY-TEXNIK HAMKORLIK: O'ZBEKISTON HINDISTON HAMKORLIGINING ILMIY SALOHİYATI VA ISTIQBOLLARI ...	37-40
<i>Aytmuratova Janilsin</i> FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF ARCHAEOLOGICAL SCIENCE IN KARAKALPAKSTAN	41-44
<i>Toreniyazov Jalgas Yerjanovich, Rzaeva Manzura Abatovna</i> JANUBIY OROL BO'YI SHAHARLARI TARIXI BO'YICHA MANBALAR (SHARQ MANBALARI).....	45-49
<i>Baqoyev Umidjon Shuhrat o'g'li</i> ABBOS I VA VALI MUHAMMADXON O'RTASIDAGI SIYOSIY ALOQALAR	50-55
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i> ANDIJON VILOYATI SUV XO'JALIGI BIRLASHMASI FAOLIYATI TARIXIDAN (1991-1996-YILLAR MISOLIDA).....	56-60
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> XOTIN-QIZLARNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI: TARIXIY JARAYON VA HOZIRGI TENDENSIYALAR	61-65
<i>Choriyeva Nargiza Ibotovna</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA TURIZM SOHASINING HUQUQIY ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	66-69
<i>Fayzullayev Oybek</i> O'RTA OSIYO XONLIKLAR TARIXINI O'RGANISH (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHIDAGI RUS MANBALARI ASOSIDA)	70-74
<i>Norboyev Ravshan Saydulla o'g'li</i> SHIMOLI-G'ARBIY BAQTRIYANING ELLINIZM DAVRI ARXEOLGIK YODGORLIKLARI TIPOLOGIYASI	75-79
<i>Rajabova Nazira Shaxobovna</i> O'ZBEK XALQ AFSONALARIDA AYOL OBRAZLARINING TASVIRLARI	80-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Gabbarov Sabit Nietali'evich

QO'Y VA ECHKILAR BOSH SONINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA
PROGNOZLASH VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANI MISOLIDA) 85-89

Xolmurotov Fozil

XORAZM VILOYATIDA EKSPORT NATIJALARI VA REAL SEKTOR
RESURSLARI O'RTASIDAGI KO'P O'LCHOVLI BOG'LIQLIK 90-103

Raximov Faxriddin Shavkatovich

TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING MARKETING
SAMARADORLIGIGA TA'SIRI 104-116

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Xoliqov Yunus Ortiqovich

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI
YUKSALTIRISH STRATEGIYASI 117-121

Farxodjonova Nodira Farxodjon qizi

JADIDLAR MEROSI VA ZAMONAVIY JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA
MA'NAVIY QADRIYATLARNING ROLI 122-128

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

TALABALARDA INTELLEKTUAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI 129-133

Yazdonova Saxiba Kurbanovna, Sanaqulov Sardor Isaqulovich

SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI BOSHQARISH METODIKASI 134-138

Danabayev Xurshid Napasovich

SPORT TURLARI VA FALSAFIY-ESTETIKANING DIALEKTIK TAHLILI 139-142

Shokirov Tohirjon

CHOLG'U SOZLARINING YOSHLARNING MA'NAVIY YUKSALISHIDAGI
O'RNI VA AHAMIYATI (DUTOR VA RUBOB SOZLARI MISOLIDA) 143-148

Raxmatov Alisher Obidovich

YANGI O'ZBEKISTONDA SHAXS ZAMONAVIY IJTIMOYIY JARAYONLARGA
INTEGRATSIYALASHUVINING FALSAFIY TAHLILI 149-152

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA:
IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR 153-158

Axatova Dildora Axtamovna

IBN SINONING "RISOLAYI FIL-HUZN" ASARINING FALSAFIY TAHLILI 159-163

Toshboboyev Maksud Jalilovich

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA SUN'IY INTELLEKT VA IJTIMOYIY JARAYONLAR
DIALEKTIKASI 164-168

Abdiyev G'ayrat Ergashevich

YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY AMALIYOTIDA YOSHLARNING IJTIMOYIY-SIYOSIY
FAOLLIGINING NAMOYON BO'LISH SHAKLLARI 169-174

<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA O'ZBEK YOSHLARINING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARIDAGI O'ZGARISHLAR	175-179
<i>Sodirjonov Muhridin Mahamadaminovich</i> RAQAMLI JAMIYATDA INSON KAPITALI RIVOJLANISHI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR.....	180-187
<i>Abduraxmonov Xasan Ibroximovich</i> YOSHLAR DUNYOQARASHIDA INNOVATSION TASHABBUSLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	188-192
<i>Norbo'tayev Islombek Musurmonovich</i> POSTHAQIQAT SIYOSATI: ALTERNATIV AXBOROT OQIMLARI ORQALI DEZINFORMATSIYA	193-198
<i>Ergashev Alijon Boxodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING TRANSFORMATSIYASI.....	199-203
<i>Elmuradova Surayyo Abdijalilovna</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA OTA-ONA VA BOLA MUNOSABATLARINING YANGI MODEL.....	204-207
<i>Bobamirzayev Abdulaziz</i> RAZIYY AD-DIN AS-SARAXSIY HAYOTI VA ASARLARI HAQIDA ILK MA'LUMOTLAR.....	208-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDAGI IJTIMOY O'ZGARISHLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR	212-216
<i>Do'snazarov Mirjalol Esanboy o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA HAYOT VA O'LIM MUAMMOSINING FALSAFIY-AXLOQIY MEXANIZMLARI	217-221
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> FALSAFADA INSON QADRI TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA GENEZISI	222-226
<i>Muhammadiyev Bekzod O'ktamjon o'g'li</i> VIRTUAL MULOQOTDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING TRANSFORMATSIYASI VA UNING AXLOQIY JIHATLARI.....	227-231
<i>Kdirbaev Baxadir Berdaxovich</i> AXBOROT JAMIYATIDA MEDIA MADANIYATNING SOTSIOMADANIY TRANSFORMATSIYALARDAGI ROLI.....	232-237
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Mamadaliyeva Naibaxon, Orifboyev Abdulloh</i> O'ZBEK TILIDA "HALOL" VA "HAROM" LEKSEMALARINING ZAMONAVIY SEMANTIK, PRAGMATIK VA SOTSIOMADANIY TAHLILI.....	238-245

<i>Уринбаева Дилбар Базаровна</i> СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПЕСЕН УЗБЕКСКИХ И ТУРЕЦКИХ ПЕВЦОВ НА ОСНОВЕ КОМПЬЮТЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКИ: НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	246-258
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СИНТАКСИЧЕСКИЙ СПОСОБ ВЫРАЖЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ СРАВНЕНИЯ И ЕГО ОСНОВНЫЕ СРЕДСТВА НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗОВ А.И. КУПРИНА	259-264
<i>Karimov Ulugbek Nusratovich</i> THE POETICS OF THE CHARACTERS' INNER WORLD IN "SPOOK COUNTRY"	265-269
<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna</i> POSTMODERN NARRATIVE TECHNIQUES IN JOHN FOWLES' WORKS: AN INTERTEXTUAL, LINGUISTIC, AND AESTHETIC APPROACH.....	270-275
<i>Tokimbetova Gulbahor Abatbayevna</i> QORAQALPOQ MUMTOZ SHOIRLAR LIRIKASINING JANRIY-TEMATIK XUSUSIYATLARI	276-279
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	280-284
<i>Sobirjonova Muxlisa Sobirjonovna</i> YOLG'IZLIK FENOMENINING SEMANTIK SHAKLLANISHI VA UNING HISSIY TAJRIBADAGI IFODASI.....	285-290
<i>Bobojonov Dilshod Jumakul ugli</i> THE PRAGMATIC AND LINGUO-CULTURAL CLASSIFICATION OF NEWSPAPER HEADLINES.....	291-294
<i>Shamshetova Biybiayim Janibek qizi</i> LINGVISTIKA VA MADANIYATSHUNOSLIKDA ANTROPOSENTRIZM KONSEPSIYASI	295-302
<i>Xaitova Gulhayo Tovasharovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAKON VA ZAMON KATEGORIYASI DOIRASIDAGI YAQIN-UZOQ OPPOZITSIYASINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	303-307
<i>Mardanova Mohira Davron qizi</i> THE ROLE OF "THE FINANCIER" IN WORLD LINGUISTICS	308-311
<i>Khalilova Shohista Muhammadi qizi</i> COMPARATIVE ANALYSIS OF UTOPIAN AND ANTI-UTOPIAN MOTIFS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	312-315
<i>Davlatova Shahnoza Muhammadiyevna</i> SUD VA TERGOV MOTIVLARINING ADABIY FUNKSIYASI	316-319
<i>Rustamov Dilshodbek</i> NUTQIY MULOQOT TAVSIFI	320-323
<i>Musayev Akmaljon Ibrogimovich</i> INGLIZ VA O'ZBEK DIPLOMATIK DISKURSIDA LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR VA TERMINOLOGIK TIZIMNING TALQINI	324-329
<i>Shamsuddinova Diyoraxon Yorqinbek qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK MEDIADISKURSINING LISONIY TAHLILI: TUZILISHI, XUSUSIYATLARI	330-333

<i>Numonova Mashxuraxon Qobiljon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA "SUV/WATER" KONSEPTINING LISONIY MODELLASHUVI: NOMINATIV VA KOMMUNIKATIV MAYDONLARNING QIYOSIY TADQIQI	334-342
<i>Норкулова Шахло Абдугофур кизи</i> СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ОКРАСКА ПРОЗВИЩ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОММУНИКАЦИЮ ...	343-345
<i>Tursunova Javhar Bakir qizi</i> O'ZBEK TILINI LINGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH	346-350
<i>Xoshimova Mohigul Axmatovna</i> XIX-XX ASRLAR DOSTONCHILIGIDA ADABIY TA'SIR MASALASI	351-355
<i>Омонова Мадина Аслиддиновна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЕ ЛАКУНЫ УЗБЕКСКОЙ КУЛЬТУРЫ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: ПРОБЛЕМЫ НЕПЕРЕВОДИМЫХ КОНЦЕПТОВ	356-361
<i>Abdulkhakova Dilafruz Shamsiddinovna</i> PERSPECTIVES AND THEORETICAL APPROACHES TO FORMULAIC EXPRESSIONS	362-370
<i>Abduraimova Mahliyo Valijon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GAZ SANOAT TERMINLARINING SHAKLLANISH USULLARI.....	371-373
<i>Rajat Choudhary</i> LATIN: THE TIMELESS LANGUAGE OF MEDICINE	374-377
<i>Клеблеева Резеда Радионовна</i> МИФОПОЭТИКА КАК КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА ЛИТЕРАТУРНОГО ТВОРЧЕСТВА	378-381
<i>Irbutaeva Nigora, Ozodova Dilafruz, Xoliqova Sabina</i> RUS TILIDA SO'ZLASHMAYDIGAN TALABALAR UCHUN RUS TILI DARSLARIDA QO'SHIQ MATERIALLARIDAN FOYDALANISH	382-385
<i>Dilbarjonov Ismoiljon, Gavxaroy Isroiljon qizi</i> SPORT TERMINLARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI	386-389
<i>Arapjonova Zebo Otabek qizi</i> THE IMPACT OF ACCENT AND PRONUNCIATION ON COMMUNICATION IN GLOBAL ENGLISH.....	390-394
<i>Qarshiyeva Muxarram Shuxratovna</i> THE ADAPTATION PROCESS OF TERMS BORROWED INTO UZBEK FROM RUSSIAN AND ENGLISH LANGUAGES.....	395-399

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich</i> JAMOAVIY MEHNAT NIZOLARINI HAL ETISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	400-407
<i>Zokirov Sherzod Ilxom o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI JORIY QILISH ORQALI MUROJAATLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	408-415
<i>Shermatov Nuriddin, Jamshidbek Ibrokhimov</i> SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV ISHLAB CHIQRISH (AM) INTEGRATSIYASI SHAROITIDA INSON HUQUQLARI HAMDA FUQAROLIK-HUQUQIY JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	416-428

<i>G'ulommamatova Parvina Akbarali qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KRIPTO-AKTIVLAR SOHASIDAGI JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI XALQARO-HUQUQIY HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	429-435
<i>Djalilov Javoxir Abdumajitovich</i> ISBOT QILISHNING UMUMIY SHARTLARI MAZMUNI VA TASNIFLANISHI	436-443
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i> RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASHDA XALQARO TASHKILOTLARNING O'RNI.....	444-450
<i>Ismailov Bekjon Salixovich</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MEHNAT HUQUQINI TA'MINLASHNING HUQUQIY KAFOLATLARI TAHLILI	451-456
<i>Mahmarahimov Ixtiyor Baxtiyorovich</i> DAVLAT XARIDLARI VA TENDER SAVDOLARIDA RAQOBATGA QARSHI XATTI-HARAKATLARNING HUQUQIY OQIBATLARI.....	457-463
<i>Almatov Sanjar Zokirovich</i> DINIY EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI.....	464-467
<i>Djuraev Farxod Eshboevich</i> JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATI USULLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.....	468-473
<i>Sadikova Dilafruz Radjabovna</i> O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA SUG'URTA MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....	474-481
<i>Сайфиддинов Аклиддин Анваржон огли</i> МЕСТНОЕ ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ КЕНГАШЕЙ И ХОКИМИЯТОВ	482-488
<i>Olimov Abbosjon</i> SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYASI: TUSHUNCHASI, TURLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI.....	489-494

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna</i> TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARIDA HISSIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	495-500
<i>Муталипова Мавлюда Жунайдуллаевна</i> НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ СУТЬ АКЦИОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА	501-506
<i>Джуманиязов Фарход Улугбекович</i> РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ МЕТОДОВ И ПРИЁМОВ ОБУЧЕНИЯ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ И КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ	507-510
<i>Kuvatova Nozima Baxtiyorovna</i> TA'LIM TIZIMIDA O'QITUVCHINING MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH	511-515

<i>Xudayberdiyeva Nilufar Bozorovna</i> TABIIY FANLARNI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O'QITISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	516-519
<i>Pirimbetov Bxit Allabaevich</i> BO'LAJAK O'QITUVCHIDA PEDAGOGIK ARTISTIZMNING TARKIBIY QISMLARI	520-526
<i>Djalolov Furqat Fattohovich</i> TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA TO'LIQ O'ZLASHTIRISH TEKNOLOGIYASINING ROLI.....	527-531
<i>Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich, Eshmuratov Marat Tangatarovich</i> PEDAGOGICAL STRATEGIES AND THE INTEGRATION OF ICT IN TEACHING FOOD PHYSIOLOGY: INNOVATIVE APPROACHES IN HIGHER EDUCATION	532-538
<i>Habibullayeva Shoirra</i> O'ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING TAMOIYILLARI	539-542
<i>Abatov Jalğasbay Orınbaevich</i> TASVIRIY SAN'AT KOMPOZITSIYALARIDA RANGLARDAN FOYDALANISH USULLARI..	543-548
<i>Azzamov Yusuf Rajaboyevich</i> TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA RAQAMLI RESURSLAR VA PLATFORMALAR: TAHLIL VA TASNIF.....	549-553
<i>Джумаева Зарина Бобохон кизи, Жаббарова Паризода Илхомжон кизи</i> МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ	554-556

Received: 20 November 2025

Accepted: 1 December 2025

Published: 15 December 2025

Article / Original Paper

LEGAL CULTURE AND DEMOCRACY: SOCIAL PHILOSOPHICAL APPROACHES AND CONCEPTS

Abdurakhmanova Nodirakhon Khusnutdinovna

Tashkent State Medical University

Senior Lecturer (PhD) of the Department of Social Sciences

Abstract. This article analyzes the interrelation between legal culture and democracy from philosophical and social perspectives. Based on the experience of Athenian democracy, the reforms of Solon and Draco, and the ideas of Montesquieu, Plato, Aristotle, and Solovyov, the essence of the legal phenomenon is examined. The study explores objective and subjective forms of law, as well as the role of freedom and culture in shaping legal culture. The article demonstrates that the dialectical unity of law and culture, together with the philosophical foundations of democracy, plays a crucial role in the development of society.

Keywords: legal culture, democracy, Athenian democracy, legal phenomenon, Solon, Draco, freedom, culture, positive law, social relations.

HUQUQIY MADANIYAT VA DEMOKRATIYA: IJTIMOIY FALSAFIY YONDASHUVLAR VA KONSEPSIYALAR

Abduraxmanova Nodiraxon Xusnutdinovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada huquqiy madaniyat va demokratiyaning o'zaro bog'liqligi falsafiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Afina demokratiyasi tajribasi, Solon va Drakon qonunlari, shuningdek Monteskye, Platon, Aristotel, Solovyov kabi mutafakkirlarning huquq va davlat to'g'risidagi qarashlari asosida huquq fenomenining mohiyati yoritilgan. Huquqning obyektiv va subyektiv shakllari, erk va madaniyatning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi o'rni tadqiq etilgan. Maqolada huquq va madaniyatning dialektik uyg'unligi, demokratiyaning falsafiy asoslari va huquqiy madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy madaniyat, demokratiya, Afina demokratiyasi, huquq fenomeni, Solon, Drakon, erk, madaniyat, pozitiv huquq, ijtimoiy munosabatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I12Y2025N26>

Kirish. Borliqdagi barcha narsalar o'z tartiblari va qonunlariga ega. Sh.L.Monteskyening fikriga ko'ra, inson ilohiy qonunlarga va o'zi yaratgan qonunlarga muvofiq yashaydi, birinchisi barqaror, o'zgarmas, ikkinchisi esa beqaror, o'zgaruvchan [1-9-10-b.]. Odam tez unutuluvchi mavjudot, shuning uchun Yaratgan ilohiy tartiblar, qonunlar borligini, faylasuflar va qonunshunoslar esa uning esiga fuqarolik burchi, ijtimoiy vazifalari borligini esiga solib turadi. Odam yaratadigan tartiblar, qonunlarga muvofiq jamiyatda qanday boshqarish demokratiyami, aristokratiyami yoki monarxiyami mavjudligini bilsa bo'ladi. Monteskye fikriga ko'ra, aristokratik yoki monarxistik boshqarishda hukmdor o'zini qonunlar, tartiblardan yuqori qo'yadi, demokratik boshqarishda esa barcha, shu jumladan, hukmdor, davlat boshlig'i ham, ularga bo'ysunadi. Bundan tashqari, demokratik boshqarishda ezgulik, ezgu amallar ham

ustuvorlik qiladi, barcha institutlar, qismlar bir birlaridan ezgu ishlarni amalga oshirishda o'zishga harakat qiladilar. Agar huquqiy madaniyat qonunlar, tartiblar ustuvorligini e'tirof etishga, ular orqali ezgulikni qaror toptirishga xizmat qilsa, demak, u demokratik boshqarish mexanizmidir. Mazkur postulat huquqiy madaniyat va demokratiya to'g'risidagi zamonaviy qarashlardan kelib chiqadi; ularga bir biriga dialektik bog'liq voqelik sifatida uyg'un qarash shakllangan. Shuning uchun huquqiy madaniyat bilan demokratiya bir birini taqozo etadi, huquqiy madaniyat demokratiyaga xizmat qilganidek, ikkinchisi ham birinchisiga xizmat qiladi; ular dialektik uyg'unlikda rivojlanish xususiyatiga ega. Mazkur postulatni deyarli barcha falsafiy yondashuvlar va konsepsiyalar, ular o'rtasida ma'lum bir g'oyaviy farqlar va gnoseologik maqsadlar bo'lishiga qaramay, tasdiqlaydi. Ular haqida zarur qarashlarga ega bo'lish muammoning qanchalik ilmiy muhimligini va obyekt doirasining qanchalik kengligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, huquqiy madaniyat muammolariga bag'ishlangan adabiyotlarda uning demokratiya bilan bog'liq jihatlari negadir tilga olinmaydi, ular o'rtasidagi dialektik bog'liqlik falsafiy tahlil qilinmaydi. Bu esa huquqiy madaniyatni falsafiy tadqiq etish hali yetarli amalga oshirilmaganini bildiradi.

Metodlar. Rivojlangan falsafiy yondashuvlarga tayangan holda quyidagi usullar qo'llanildi: falsafiy-nazariy tahlil — Monteskye, Platon, Aristotel, Solovyov asarlari tahlili; tarixiy-mantiqiy usul — Afina demokratiyasi, Solon va Drakon qonunlarining solishtirilishi; qiyosiy tahlil — klassik, liberal, elitar va poliarxik demokratiya modellari; kategoriyaviy-tahliliy yondashuv — “huquq”, “erk”, “madaniyat”, “majburlash” tushunchalarining solishtirma sharhi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Huquqiy madaniyat va demokratiya uyg'unligi mavzusini tadqiq etganda, bizning fikrimizcha, huquq fenomeniga urg'u berish mantiqan to'g'ri bo'ladi. Demokratiyaga oid falsafiy yondashuvlar va konsepsiyalardagi huquqning o'rni, inson erki, ozodlik, mehnat huquqi, yashash huquqi, saylash va saylanish, davlat ishlarini olib borishda ishtiroki huquqi, hurfiylik, ijod erkinligi kabilarga e'tibor qaratiladi. Aynan ular huquq falsafasining predmeti hisoblanadi va bizni ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar tomonga og'ib ketishdan asraydi. Bizga demokratik yondashuvlar va konsepsiyalardagi ijtimoiy-siyosiy voqeliklar emas, ulardagi inson huquqi va erkinliklariga oid qarashlar zarur. Ular negizidagi falsafiy mohiyat, insonning davlat bilan aloqalari, boshqarish tizimi bilan inson erki masalalari tadqiqotimiz maqsadiga muvofiqdir. Mavjud ilmiy siyosiy va falsafiy adabiyotlarni o'rganishdan kelib chiqib demokratiyaga oid yondashuvlar va konsepsiyalarni quyidagilarga guruhlashimiz mumkin:

1. Afina demokratiyasi.
2. Mumtoz liberal demokratiya.
3. Zamonaviy liberal demokratiya yoki neoliberalizm konsepsiyasi.
4. Elitarizm yoki elitar demokratiya.
5. Siyosiy plyuralizm konsepsiyasi.
6. Konstitusionalizm konsepsiyasi.
7. Poliarxiya konsepsiyasi.
8. Vakillik demokratiyasi.
9. Iqtisodiy demokratiya.
10. Huquqiy demokratizm.

Mazkur yondashuvlar va konsepsiyalarni yana davom ettirish mumkin, biroq ushbu yo'nalishlarning o'zi mavzumizdagi maqsadni ochib berishga yetarli materiallar bera oladi.

Demokratiya to'g'risida gap ketganida, tadqiqotchilar avvalo Afina tajribasini tilga olishadi, uni mumtoz misol, insoniyat tarixidagi ibratli siyosiy va huquqiy tajriba sifatida eslashadi. Aynan Afina demokratiyasi Platon va Aristotelning siyosiy-falsafiy qarashlariga ta'sir etgan, ular asarlaridagi fikrlar Afina demokratiyasi (er avv. 594-321-yillar)ni anglashga, undagi tajribalar haqida ma'lum bir xulosalar chiqarishga imkon beradi. Manbalarda aytilishicha, Afina demokratiyasiga arxont Solon asos solgan. Xalq yig'ini saylagan strateglar Afina davlati uchun zarur bo'lgan qonunlarni qabul qilgan. Qonunlarni bajarish hamma uchun baravar teng taalluqli edi. Qullar, ayollar va muhojirlarning huquqlari cheklangan bo'lsa-da, umumiy qonunlarga rioya etish ularga ham majburiy edi. Ma'lumki, Qadimgi Afinada avval shohlik davlat tizimi mavjud edi, davlat boshqarish huquqi ushbu qatlam qo'lida edi. Shohlikdan arxontatga o'tish oson kechmagan, albatta [2-15-16-b.]. Drakon qonunlari ilk yozma normalar bo'lgan. Ularda belgilangan jazolar beshafqatligi bilan ajralib turadi. Oddiy kishilar, demos kun ko'rish uchun, Periklning xabar berishicha, hatto "bolalarini ham sotishgan" Bu qonun tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Solon davrida esa qonunga itoat etishning demokratik davri boshlangan. Uning fikricha, davlat hayotini boshqarish, jamiyatdagi osoyishtalik qonunlar tufaylidir, qonunlar yo'q joyda betartiblik, boshboshdoqlik, xaos yuzaga keladi. Demosni "qarzdorlik balosi"dan xalos qilgani uchun Solonni ulug'lashgan. Kishilar qarz to'lovi sifatida sog'ligi, tanasini qo'yishgan, davlat bu tartib tarafdori bo'lgan. Solon bu tartibni bekor qilib, "qarzdorlik balosi"ni bekor qiladi. Demosga erkinlik beriladi. Eng muhimi shundaki, Solon shaxsning siyosiy va iqtisodiy huquqini qo'llab-quvvatladi, u huquqlari poymol etilgan kishilarga erk berdi, vatandan chiqib ketishga majbur bo'lganlarni orqaga qaytardi. Ayrim shaxslarning haddan tashqari katta yerga ega bo'lishini, haddan ziyod boylik to'plashga intilishini chegaraladi. Kishilarning o'z huquqlarni himoya qilishi uchun sud tizimini joriy etdi. Uning davlat boshqarishi demokratik xususiyatga ega bo'lganini Aristotel alohida qayd etadi [3-465-466-b.]. Faylasuf fikriga ko'ra, Solon fuqarolarning rahbarlarni saylash huquqini o'rnatgan, saylangan rahbarlar esa ish ko'zini biladigan kishilar bilan maslahatlashib turgan, natijada demokratik boshqarish saylash huquqidan unib chiqqan Ba'zi tadqiqotchilar Afina demokratiyasini Suqrot hayoti va ijodi bilan bog'laydilar va o'sha davrdagi inson huquqining ideal tasvirini yaratadilar. Suqrotning falsafiy-axloqiy pozitsiyasini shaxs huquqining ideal ko'rinishi sifatida qarash pozitiv yondashuv, biroq uning qatl etilishida mazkur idealni asoslashga hojat qolmaydi. Begunoh kishining afinalik demokratlar tomonidan sud va o'limga hukm qilinishi demokratiya tamoyillariga sig'maydi [4-25-26-b.]. Demak, demokratiya va inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning ideal shakli yo'q, inson xarakteri, kognitiv tajribalari, ehtirolari bilan bog'liq har qanday hayot tarzida g'ayrihuquqiy hodisalar -uchrash mumkin. Ammo ushbu g'ayrihuquqiy hodisalar normaga, turmush tarzi va odatga aylanmasligi lozim.

Yana shuni ta'kidlash joizki, Huquq fenomenining kelib chiqishi borasida ko'p yozilgan, davlatchilik masalalariga oid ilmiy adabiyotlarning deyarli barchasida huquqning genezisi, umummajburiy xarakteri, sinfiy munosabatlar va xususiy mulk bilan bog'liqligi tilga olinadi. Ekzistensial hodisa sifatida u jamiyatdagi tartib, urf-odat, an'ana, tabu kabilarda, yuridik-etatistik talqinda esa davlat, siyosiy institutlar xohish, irodasini ifoda etuvchi va barchaga majburan singdiriluvchi qonunlar, aktlar va normalar hisoblanadi [5-40-b.]. Ushbu talqindan kelib chiqib, mualliflar huquqni obyektiv huquq va subyektiv huquqqa ajratadilar. "Obyektiv huquq shaxsning huquqqa daxldor yoki huquqqa daxldor emasligini aniqlab beruvchi umummajburiy normalar tizimidir. Subyektiv huquq esa shaxsning huquq va xatti-

harakatlarini himoya qilish uchun davlatga yuridik murojaatlari imkoniyatlaridir” (O’sha joyda). Mazkur huquqlar jamiyatdagi hukmron guruhlar, sinflar tomonidan o’rnatilgan umummajburiy normalar, xatti- harakatlar tizimi va ijtimoiy iqtisodiy bazisning ta’sirida shakllangan tashkillashtirilgan, yo’lga qo’yilgan, regulyatsiya, tartib intizom mexanizmlaridir. Ular asosan uchta - tashkiliy, konfliktli himoyaviy va ideologik vazifalarni bajargan. Xullas, huquqning mohiyati umummajburiy normativlik, qat’iy formal aniqlik, yuqori tarzda davlat tomonidan ta’minlanganlik, kerak paytda esa davlat tomonidan majburlash vositalari orqali ta’sir etish kuchiga ega bo’lganlikdadir [6-11-13-b.]. Bu vazifalar pirovard natijada ijtimoiy munosabatlarni yo’lga qo’yishga, xatti- harakatlarning mumkin yoki shart ekanligini belgilab berishga xizmat qiladi. Shu tariqa huquq jamiyat va shaxs, davlat va fuqaro munosabatlarini yo’lga qo’yish, ularni ijtimoiy taraqqiyot manfaatlariga yo’naltirish mexanizmi sifatida namoyon bo’ladi. Deyarli barcha talqinlarda ushbu fikr, postulat u yoki bu ko’rinishda takrorlanadi, bu borada bahs, tortishuv bo’lgani ma’lum emas.

Huquqiy madaniyatning falsafiy-ekzistensial mazmunini huquq fenomenidan keltirib chiqarish keng tarqalgan. Aynan huquq va u bilan bog’liq jarayonlar, huquqiy madaniyatga mazmun, mohiyat baxsh etadi. Shuning uchun huquqiy madaniyatni huquqshunos va yuridik fanlar tadqiqotchilari o’zining obyekti deb biladi.

Hatto falsafiy-axloqiy voqeliklar bo’lgan “erk”, “iroda”, “ma’naviy imperativ”, “majburlash” kabilar ham, huquqshunoslar va yuridik fanlar tadqiqotchilari fikricha, huquqiy madaniyatning ma’lum bir jihatlari yoki ushbu jihatlarni asoslab keluvchi substansiyalardir. Masalan, yuridik fanlari doktori, professor H.B.Boboyev, huquqiy madaniyatning inson erki va xulq- atvori bilan jihatlarni kuzatib yozadi: “Keng falsafiy ma’noda odam o’z erkini boshqa odam erkidan farqlagan, boshqa odamlar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishgan va u bilan munosabatlarning ma’lum bir yuridik qonunlarga qurilishi zarurligini yoki qurilganini anglagan zahoti huquqiy madaniyat namoyon bo’ladi” [7-178-b.]. X.B.Boboyevning fikriga ko’ra, huquqiy madaniyat huquq bilan madaniyat o’rtasidagi aloqalarda emas, balki o’zining va boshqalarning erkini anglab, ular bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishgan zahoti namoyon bo’ladi. Demak, erk va ijtimoiy munosabatlar huquqiy madaniyat namoyon bo’lishining negizlaridir. Savol uyg’onishi mumkin, nima uchun huquq va madaniyat fenomenlari emas, balki erk va ijtimoiy munosabatlar huquqiy madaniyatning negizlariga aylandi? Haqiqatan ham, huquqiy madaniyat negizlarini huquq va madaniyat fenomenlaridan izlash to’g’ri emasmi? Nima uchun tibbiyotshunoslar tibbiy madaniyatni tibbiyot va madaniyat uyg’unligidan, siyosiyosatshunoslar siyosiy madaniyat negizini siyosat va madaniyat uyg’unligidan izlashadiyu, huquqshunoslar huquqiy madaniyat negizini erk va ijtimoiy munosabatlardan izlashadi? Ijtimoiy taraqqiyot tarixi ko’rsatadiki, huquq va erk uzviy bog’langan voqeliklardir. Erk uchun kurash huquq uchun, huquq uchun kurash erk uchun kurash bo’lib kelgan. Ularni bir-biriga aynan, sinonim deb qarash ham uchraydi. Biroq erk huquqdan kengroq, u mudom huquqni o’z ichiga oladi. Masalan, huquq amal qilmaydigan joy(er-xotin aloqalari, shaxsiy hayotni yo’lga qo’yish kabilar)da erk qatnashadi, inson ixtiyoriy xatti- harakatlarining ekzistensial ifodasi sifatida keladi. Shuning uchun erk ixtiyoriy xatti- harakat, ixtiyoriy iroda, huquq esa rasmiy, ya’ni davlat tomonidan o’rnatilgan umummajburiy normalar hisoblanadi. Birinchisini bajarish yoki bajarmaslik mudom inson ixtiyorida, ikkinchisini bajarish yoki bajarmaslik inson ixtiyorida emas, u bu umummajburiy normalarga amal qilishi shart. Lekin bunday yondashuv huquqni mutlaqlashtirishga olib kelmasligi zarur, chunki inson ixtiyoriylik

tamoyillariga asoslanadigan erk bilan majburiylik tamoyiliga tayanadigan huquq o'rtasida yashaydigan ijtimoiy mavjudot. Uning ushbu xislati ijtimoiy munosabatlarida, ijtimoiy hayot qo'ynida yashashida mujassamdir. Mana, nima uchun H.B.Boboyev huquqiy madaniyat negizini erk va ijtimoiy munosabatlarda ko'radi. Shunday bo'lsa -da , bizning fikrimizcha, huquqiy madaniyat negizi, ayniqsa tushunchasining definitiv (etimologik) talqini "huquq" va "madaniyat" tushunchalarining talqinidan izlanishi zarur. Bu o'rinda huquqshunos-kriminalistlar qo'llaydigan "Hasanning aybini Husandan qidirmaslik kerak" degan qoidaga amal qilishga to'g'ri keladi.

Huquqning umummajburiy norma, voqelik ekanini yuqorida ta'kidlagandik. Sinfiiy munosabatlar va mulkiy differentsiatsiyaning vujudga kelishi bilan bog'liq tarzda shakllangan huquq bugun umumijtimoiy xarakterga ega, jamiyat a'zolarining barchasiga baravar taalluqli, sivilizatsiyaviy voqelik, tartib, intizom, tashkillashtirilganlik va regulatsiya vositasidir [8-7-b.]. Umummajburiy normativlik huquq fenomenining bosh belgilaridan biridir. "Madaniyat" esa umummajburiylikni normativlikni voqelik bo'lishni yoqtirmaydi, unga erkin ijod qilish, rang-barang qadriyatlarga ergashish, nostandart fikrlash, mavjud tartiblar va unifikatsion yondashishlardan qochish, o'zish xos. Shu ma'noda u huquqni, undagi umummajburiylikni, standart fikrlash va xatti- harakatlarni tartiblashtirishni, unifikatsion yondashuvlarni yoqtiravermaydi. Lekin madaniyat huquqning antipodi emas, u o'zining gumanistik maqsadi va ideallari bilan huquqqa ta'sir etadi, hatto uni o'z ketidan ergashtiradi. Rus faylasufi V.V.Solovyov huquq va axloq muammolarini tadqiq etib, teofalsafiya xos xulosaga keladi. Uning fikricha, huquq ijtimoiy borliqni, kishilik jamiyati hayotini ma'lum bir odatlar, tizimlar va tartiblarga muvofiqlashtirish usuli, ammo u normativ voqelikka emas, balki axloqqa yoki axloqiy madaniyatga bo'ysunishi kerak. Huquq majburiyligi bilan kishini o'zidan begonalashtirish kuchiga, ta'siriga ega, madaniyat, axloq esa kishini har qanday ko'rinishda o'ziga jalb eta oladi, chunki unda erk, ijod, yaratish zavqi va ma'naviy-axloqiy qadriyatlar yaratish quvvati mujassamdir. Ushbu quvvat kishilarning o'zini, o'z qalbi va ruhiga jo bo'lgan kuchni, ilohiy quvvatni uzoq asrlar davomida idrok etish, anglash jarayonlarida shakllangan. Ularni huquq, umummajburiy tartiblar shakllantirmagan, balki ular huquqqa qarshi fenomenlar tarzida yuzaga kelgan [9-21-23-b.]. Huquqning chegaralovchi, tartiblashtiruvchi kuchi, ijtimoiy-falsafiy va ekzistensial ma'noda, madaniyatga ziddir. Mohiyatan bir-biriga zid ekzistensiyalarning uyg'unlashib, yangi, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur voqelikka (huquqiy madaniyatiga) aylanishi paradoksial hodisadir. Ushbu hodisani biz, kishilik jamiyati ijobiy narsa sifatida qabul qilmoqdamiz. Buni davlatchilik, etatizm tarafdorlari ham, anarxist, nigilistlar ham e'tirof etishadi. Shuning uchun ham tafakkur tarixida huquqni ham, madaniyatni ham mutlaqlashtiruvchi yoki ularni mutlaq inkor qiluvchi yondashuvlar uchramaydi.

Xulosa. Huquqni e'tirof etgan undagi madaniylikni ham e'tirof etishga majbur, madaniyatni tan olgan esa unda sotsionormativlikni yoki huquqni ham tan oladi. Madaniyatdagi ijod erkinligini huquq fenomeni ta'sirisiz tasavvur etib bo'lmaydi, qayerda huquq mavjud ekan, u yerda madaniy boylik ham mavjuddir. Definitiv yondashuvdagi ushbu dialektik bog'liqlikni rad etish avvalo shaxsning o'zi uchun zararlidir, yaxshisi ulardan uyg'unlikni, huquqni pozitiv voqelikka (pozitiv huquqqa) aylantirish imkoniyatlarini izlash kerak. Huquqiy madaniyatning definitiv xususiyatlarini to'laroq bilish uchun uning turli ilmiy-nazariy fanlardagi talqinlarini ham ko'zdan kechirishga to'g'ri keladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Монтескье Ш.Л. О духе законов. - Москва : Изд.АСТ, 2022.
2. Безускул В. Афинская демократия. Харьков: Изд. "Союз", 1920.
3. Аристотель. Сочинения в четырех томах. - Москва : Мысль, 1983.
4. Зберовский А.В. Сократ и афинская демократия (социально- философское исследование). -Краснодар: КГАУ, 2007
5. Каримова О.А., Гафаров З.М. Основы государства и права. - Тошкент: "Ўқитувчи", 1995.
6. Керимов Д.А. Методология права: предмет, функции, проблемы философии и права - Москва : Изд.СГУ, 2008.
7. Бобоев Ҳ.Б., Ҳамраев Т., Алимасов В. Маданиятшунослик. - Тошкент: "Янги аср авлоди", 2001.
8. Нерсисянц В.С. Философия права. - Москва:1999.
9. Тўйчиев Б. Ҳуқуқ фалсафаси. - Тошкент: Университет, 2001.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 12 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).